



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

FALSAFA FANINI O'QITISH JARAYONIDA MEDIASAVODXONLIK ELEMENTLARINI INTEGRATSIYA QILISH TAMOYILLARI

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti, dotsent (DSc)

Annotatsiya

Maqolada falsafa fanini o'qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish tamoyillari tahlil qilinadi. Mediasavodxonlik bugungi axborot jamiyatida talabalar uchun tanqidiy fikrlash, axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil etish va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Falsafa fanini o'qitishda mediasavodxonlik elementlarini joriy etish orqali fanlararo uyg'unlik, interaktivlik va hamkorlik, tanqidiy fikrlash, axborot manbalari xilma-xilligi hamda bevosita amaliy ahamiyat tamoyillari amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini samarali, innovatsion va interaktiv muhitda tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Falsafa fani, mediasavodxonlik, fanlararo uyg'unlik, tanqidiy fikrlash, interaktivlik va hamkorlik, axborot manbalari xilma-xilligi, bevosita amaliy ahamiyat.

ПРИНЦИПЫ ИНТЕГРАЦИИ ЭЛЕМЕНТОВ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В ПРОЦЕСС ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ

Абдухоликова Насиба Алижоновна

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхақхана Ибрата, доцент (DSc)

Аннотация

В статье анализируются принципы интеграции элементов медиаграмотности в процесс преподавания философии. Медиаграмотность в современном информационном обществе играет важную роль в формировании у студентов навыков критического мышления, правильного восприятия информации, её анализа и рационального использования. Внедрение элементов медиаграмотности в преподавание философии обеспечивает междисциплинарную интеграцию, интерактивность и сотрудничество, развитие критического мышления, разнообразие источников информации, а также непосредственную практическую значимость. Такой подход способствует организации эффективной, инновационной и интерактивной образовательной среды.

Ключевые слова: философия, медиаграмотность, междисциплинарная интеграция, критическое мышление, интерактивность и сотрудничество, разнообразие источников информации, практическая значимость.

PRINCIPLES OF INTEGRATING MEDIA LITERACY ELEMENTS INTO THE PROCESS OF TEACHING PHILOSOPHY

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishaqkhan Ibrat, Associate Professor (DSc)

Abstract

The article analyzes the principles of integrating media literacy elements into the process of teaching philosophy. In today's information society, media literacy plays a crucial role in developing students' skills of critical thinking, accurate perception of information, analysis, and rational use. Introducing media literacy elements into philosophy teaching ensures interdisciplinary integration, interactivity and collaboration, critical thinking development, diversity of information sources, and direct practical relevance. This approach contributes to creating an effective, innovative, and interactive educational environment.

Keywords: philosophy, media literacy, interdisciplinary integration, critical thinking, interactivity and collaboration, diversity of information sources, practical relevance.

Zamonaviy ta'lim jarayonida falsafa fanini o'qitish hamda ushbu fan orqali mediasavodxonlik elementlarini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, talabalar har bir axborot manbai bilan mustahkam aloqa o'rnatadi, turli mediariesurlardan foydalanadi, jahon manbalari bilan bog'liq axborotni tezkor qabul qiladi. Jamiyatda

media muhit shakllanib borar ekan, bu muhitda axborotni to'g'ri qabul qilish, tanqidiy tahlil etish, undan oqilona foydalanish hamda yondashuvlar bilan tanish bo'lish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda eng asosiy vazifa ta'lim tizimi zimmasiga tushadi. Xususan, fanlarning barchasi bo'yicha axborotni saralash, tahlil etish, tahlildan keyingina muhim xulosalarni chiqarish ko'nikmasini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Falsafa fanini o'qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini joriy etish esa o'quvchilarni chuqur fikrlay olish, ularni axborotni aniq manbalar asosida tushunishga yo'naltirish va eng asosiysi, jamiyatdagi turli fikrlar, g'oyalar va mafkuraviy jarayonlarni talqin etishda puxta mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Zero, metodik jihatdan oqilona yondashuv yordamida o'quvchilarda mediamakon bilan ishlash, axborotni saralash, uning manbai, maqsadi va mohiyatini anglay olish ko'nikmalari shakllansa, pedagogik jihatdan esa ta'lim jarayoni ziyoda samarali bo'lib, fanlararo bog'liqlikka erishiladi, o'quvchilarda bir butun dunyoqarash aks etadi. Shu tariqa mediasavodxonlikka asoslangan ta'lim uslublari falsafa fanining nazariy jihatlariga amaliy tus bag'ishlaydi.

Adabiyotlar tahlili

Falsafa fanini o'qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish masalasi zamonaviy ta'limda tanqidiy tafakkur, axborotni tahlil qilish, media matnlarning mafkuraviy va axloqiy mazmunini baholash kabi ko'nikmalar bilan bevosita bog'liqdir. Bu yo'nalishda media ta'lim, kognitiv tahlil, tanqidiy pedagogika va raqamli madaniyatga oid ilmiy qarashlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Len Masterman o'zining "Teaching the Media" asarida media ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni **tanqidiy avtonomiya**ni shakllantirishdan iborat ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim oluvchi media matnlarni mustaqil tahlil qila olishi, ulardagi yashirin ma'no, manfaat, ideologik yo'nalish va ta'sir mexanizmlarini anglay olishi kerak. Mastermanning bu qarashi falsafa fanini o'qitishda ayniqsa muhimdir, chunki falsafa darslarida haqiqat, bilim, qadriyat, axloq, erkinlik va mas'uliyat kabi tushunchalar muhokama qilinadi. Demak, media xabarlarini falsafiy tahlil qilish orqali talabalar nafaqat axborotni qabul qiladi, balki uni tanqidiy baholashga ham o'rganadi (Masterman, 1985).

W. James Potter "Media Literacy" asarida mediasavodxonlikni media bilan to'yingan jamiyatda axborot oqimini ongli boshqarish, media qanday ishlashini, auditoriya e'tiborini qanday jalb qilishini va odamlar qarashlariga qanday ta'sir ko'rsatishini anglash qobiliyati sifatida izohlaydi. Potter yondashuviga ko'ra, mediasavodxon shaxs axborotni passiv iste'mol qilmaydi, balki uni saralaydi, manbasini tekshiradi, mazmunini baholaydi va unga nisbatan ongli munosabat bildiradi. Bu qarash falsafa ta'limi uchun muhim, chunki falsafa fani talabadan dalil, sabab, mantiqiy izchillik va haqiqat mezonlarini ajrata olishni talab qiladi. Shuning uchun falsafa darslarida media xabarlar, reklama, ijtimoiy tarmoq postlari yoki siyosiy nutqlarni tahlil qilish talabalar tafakkurini faollashtiradi (Potter, 2021).

Renee Hobbs "Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom" asarida mediasavodxonlikni ta'lim jarayonining alohida predmeti sifatida emas, balki barcha fanlarga integratsiya qilinishi mumkin bo'lgan universal ko'nikmalar tizimi sifatida talqin qiladi. Hobbs mediasavodxonlik orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot, ommaviy madaniyatni tahlil qilish va raqamli muhitda mas'uliyatli ishtirok etish ko'nikmalari rivojlanishini ko'rsatadi. Bu yondashuv falsafa faniga to'liq mos keladi, chunki falsafiy ta'lim ham shaxsning mustaqil fikrlashi, savol qo'yishi, dalil keltirishi va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirishini nazarda tutadi. Hobbsning fikrlaridan kelib chiqib, falsafa darslarida film lavhalar, yangiliklar, bloglar, reklama matnlari va ijtimoiy tarmoq materiallari falsafiy muammolarni tahlil qilish vositasi sifatida qo'llanishi mumkin (Hobbs, 2011).


Douglas Kellner media ta'limga tanqidiy yondashuvni rivojlantirgan olimlardan biri bo'lib, Jeff Share bilan hammualliflikdagi "Critical Media Literacy, Democracy, and the Reconstruction of Education" asarida tanqidiy mediasavodxonlik XXI asrda demokratik jamiyat va faol fuqarolik uchun zarur ekanini asoslaydi. Mualliflar mediasavodxonlikni faqat texnik ko'nikma yoki media vositalaridan foydalanish malakasi sifatida emas, balki media, auditoriya, axborot va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati sifatida ko'radilar. Bu qarash falsafa fanida ijtimoiy falsafa, axloq falsafasi, siyosiy falsafa va gnoseologiya mavzularini o'qitishda muhim metodologik asos bo'la oladi. Chunki talabalar media orqali tarqatilayotgan axborotda kimning manfaatlari aks etgani, u qanday qadriyatlarni ilgari surayotgani va jamiyat ongiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilishga o'rganadi (Kellner & Share, 2007).

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, falsafa fanini o'qitishda mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish faqat qo'shimcha metodik vosita emas, balki falsafiy tafakkurni

rivojlantirishning samarali yo‘nalishidir. Masterman tanqidiy avtonomiya, Potter axborot oqimini ongli boshqarish, Hobbs mediasavodxonlikni fanlararo integratsiya qilish, Kellner esa media, hokimiyat va jamiyat munosabatlarini tanqidiy anglash g‘oyalarini ilgari suradi. Ushbu qarashlar asosida falsafa darslarida media matnlarni tahlil qilish, dalil va manipulyatsiyani farqlash, raqamli muhitdagi axloqiy mas‘uliyatni muhokama qilish hamda talabalarda mustaqil tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Muhokama. Iqtisodchi, pedagog va media tahlilchi olimlar mediasavodxonlikni jamiyatda amalga oshirish uchun avvalo ta‘lim muassasalarida maqsadli ishlar olib borilishi kerakligini qayd etishadi. Mazkur fikrlardan kelib chiqib, falsafa fanini o‘qitish jarayonida ham mediasavodxonlikni rivojlantiruvchi maqsadli dasturlar, innovatsion texnikalar va metodlar joriy qilinayotganini ko‘rishimiz mumkin. Mediasavodxonlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan falsafa fenomeni axborotni tanqidiy qabul qilish, unda aniq maqsadni ko‘rish, shubhali ma‘lumotlarga tanqidiy yondashuvni ta‘minlash bilan hamohangdir.

Falsafa fanini o‘qitishda mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish bir necha tamoyilga asoslanadi:



1-rasm. Falsafa fanini o‘qitishda mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish tamoyili

Fanlararo uyg‘unlik tamoyili. Falsafa fanining mazmuni turli tushuncha, g‘oya va nazariyalardan iborat bo‘lib, ular axborot jamiyatida turli media manbalar orqali yoritilishi mumkin. Mediasavodxonlik esa har bir fan uchun teng ahamiyatga egadir. Shu bois, o‘quvchi falsafa fanini o‘rganar ekan, bu borada axborot texnologiyalari, psixologiya, tarix, adabiyot, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan bog‘liq holda anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, falsafiy tushunchalarni tarixiy yondoshuv bilan tahlil qilish jarayonida o‘quvchi internet manbalaridan mustaqil ravishda tarixiy axborotni topa olishi, har xil turdagi tarixiy ma‘lumotlarni solishtirishi, ularni tekshirishi, manbalar ishonchligi haqida fikr yuritishi zarur. Shundagina fanlararo bog‘liqlik mediasavodxonlik bilangina sinovdan o‘tadi.

Interaktivlik va hamkorlik tamoyili. Mediasavodxonlik asoslarini falsafa fanini o‘qitish jarayoniga kiritganda, asosiy maqsadlardan biri o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashinuvini kengaytirishdir. Chunki falsafa – bu fikr almashinuvidir, munozara, munozarada esa axborot manbalari bilan ishlash, ularni har tomonlama ko‘rib chiqish talab qilinadi. Interaktivlik va hamkorlik tamoyili shundan iboratki, dars jarayonida o‘quvchilar jamoaviy loyihalar orqali ma‘lum bir mavzuda mediamateriallar yaratilishi, o‘qituvchi ko‘magida tahlil qilinishini nazarda tutadi. Masalan, “Axborot asrida inson ongi manipulyatsiyalari” mavzusida videolavhalar tayyorlash, manipulyatsiya mexanizmlarini yorituvchi maqola yaratish yoki maqola haqida fikrlar forumi tashkil etish kabi mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin. Bu holda har bir o‘quvchi nafaqat dars davomida falsafiy tushuncha va qoidalarni egallaydi, balki mavjud mediamateriallarga nisbatan tanqidiy yondashuv amaliyotini ham ado etadi.

Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish tamoyili. Falsafa, eng avvalo, tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog‘liq. Mediasavodxonlik ham axborotni tanqidiy ko‘rib chiqishni, asossiz ma‘lumotlarni saralab tashlashni talab etadi. Shu sababli ham falsafa fanini o‘qitishda mediasavodxonlik elementlarini

kiradigan tamoyillardan biri tanqidiy tahlil tamoyilidir. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarga turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni taqqoslash, asossiz fakt va asoslangan faktni ajrata olish, subyektiv fikr bilan obyektiv ma'lumotni baholash, manba ishonchligini aniqlash kabi ko'nikmalarni o'rgatishi lozim. Masalan, Spinoza yoki Ibn Sino kabi faylasuflarning asarlarida beriladigan fikrlar bilan hozirgi zamon mediamalumotlari o'rtasidagi uyg'unlik yoki tafovutlarni aniqlash bo'yicha vazifalar tashkil etilishi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar bir paytda ham falsafa fanining tarixiy ildizlarini o'rganadi, ham zamonaviy mediamakon realligini tushunish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Axborot manbalari mo'ljalliligi tamoyili. Mediasavodxonlikni shakllantirishda tanlanadigan axborot manbalari turli-tuman bo'lishi lozim. Chunki o'quvchilar birgina manba bilan cheklanmasligi kerak: matn, videoleksiya, ilmiy maqola, statistik ma'lumotlar, grafika, animatsiya va hokazolar – hammasi jarayonda ishtirok etadi. Falsafiy tushunchalarni anglashda, masalan, turli mualliflar tomonidan taqdim etilgan tushunchalarni ko'rib chiqish, uyg'unlashgan axborotlarni taqqoslash, biror tushunchaning tarixi yoki shakllanish jarayonini zamonaviy mediabanklar yordamida aniqlash, video-leksiyalar orqali ko'proq ma'lumot olish kabilar tashkil qilinadi. Bu axborot manbalarining xilma-xilligi esa metodik jihatdan g'animat bo'lib, darslarni sifatli o'tkazish imkonini beradi.

Bevosita amaliy ahamiyat tamoyili. Mediasavodxonlik – faqat nazariy tushuncha emas, u amaliyotda o'z aksini topishi zarur bo'lgan ko'nikmalar majmuasidir. Falsafa fanining mazmunida har bir tushuncha o'quvchi hayotida qay darajada foydali bo'ladi – shu masala ham o'qituvchi tomonidan doimiy tarzda ko'rib chiqilishi kerak. Mediasavodxonlik elementlarini joriy etish natijasida esa o'quvchi yoki talabalar ertaga kundalik hayotda, internet axborotlari bilan ishlashda yoki muhim bir ilmiy izlanish olib borishda bu ko'nikmalardan samarali foydalanishi mumkin bo'ladi. Masalan, falsafa fanini o'qitish jarayonida ma'lum bir muammoni tahlil etish uchun o'quvchilardan media-tahlil qilish (media analysis) kompetensiyalari talab etiladi: ma'lumotni tanlab olish, ishonchli manba topish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, obyektiv baholash, tanqidiy yondashuvda bo'lish. Bu bevosita amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bilimdon, salohiyatli, mustaqil fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashda muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, falsafa fanini o'qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish tanqidiy fikrlash nihoyatda zarur bo'lgan XXI asr ta'lim miqyosida moddiy-texnik bazani kuchaytiribgina qolmasdan, balki o'quv jarayoniga keng ko'lamda ilmiy, amaliy va pedagogik yondashuvni olib kiradi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchining hamkorligida interaktiv, samarali, innovatsion ta'lim muhitini barpo etishni talab qiladi. Shu tariqa, zamonaviy ta'lim tizimida falsafa fanini mediasavodxonlik bilan uyg'unlashtirib o'qitish natijasida, bir tomondan, o'quvchilar jahon manbalari bilan fikrlashda keng qamrovli tushunchaga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, axborot ishlab chiqarish, uni tahlil qilish, tanqidiy yondashuvni rivojlantirish bo'yicha yuqori malakali ko'nikmalarga erishadi. Natijada jamiyatda sodir bo'layotgan har qanday jarayonni ilmiy tahlil qilish, obyektiv fikr bildirish, aholining axborot bilan ishlash madaniyatini oshirish imkoniyati tug'iladi. Mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish orqali falsafa fanining samaradorligi oshib, u haqiqiy hayotiy ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Masterman L. Teaching the Media. – London: Comedia Publishing Group, 1985. – 348 p.
2. Potter W.J. Media Literacy. 10th ed. – Los Angeles: SAGE Publications, Inc., 2021. – 504 p.
3. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks, CA: Corwin, 2011. – 232 p.
4. Kellner D., Share J. Critical Media Literacy, Democracy, and the Reconstruction of Education // Media Literacy: A Reader / ed. by D. Macedo, S.R. Steinberg. – New York: Peter Lang, 2007. – P. 3–23.